
“Eng faol innovator ayol” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi bo‘lib o‘tmoqda

// 25.08.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/eng-faol-innovator-ayol-ko-rik-tanlovining-respublika-bosqic



Xotin-qizlarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishiga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli xotin-qizlarning ixtirochilik va innovatorlik salohiyatini aniqlash, ular orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda innovatsion g‘oya, loyiha va texnologiyalarini ishlab chiqarish maqsadida har yili “O‘zkimyosanoat“ AJ tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan 50 yoshgacha bo‘lgan mutaxassis xotin-qizlar o‘rtasida “Eng faol innovator ayol” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.



Bu yilgi tanlov RKTUning Toshkent shahridagi filialida bo‘lib o‘tmoqda.



Tanlov ishtirokchilari tomonidan energiya tejamkor, ekologik muammolarga yechim beradigan, ishlab chiqarish jarayonlarini mukammallashtiruvchi, import o‘rnini qoplovchi, korxona xarajatlarini tejovchi va qo‘shimcha ish o‘rinlari hamda daromad keltiruvchi jami 13 ta innovatsion g‘oya ishlanmalari taqdim etildi.



Tanlovda ishtirokchilarning innovatsion ishlanmalarini adolatli va xolisona baholash maqsadida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Innovatsion rivojlanish agentligi vakillari ham ishtirok etishmoqda.



Ishchi guruh tomonidan barcha loyihalar chuqur tahlil qilinib, eng munosiblari taqdirlanadi.


Uzkimyosanoat
Loyihaning maqsadi
UZ-POTASH
Mahsulotni mahalliylashtirish
O'zbekiston sharoitida ilk bor mikroelementlar bilan boyitilgan kaliy xlorid ishlab chiqarish orqali importga qaramlikni kamaytirish, mavjud xomashyo bazasidan samarali foydalanish, mahsulot turini ko'paytirish
Hosildorlikni oshirish
O'simliklar uchun zarur bo'lgan mikroelementlarni (mis, rux, marganets, bor) kompleks shaklda o'g'itga qo'shish orqali agrotexnik samaradorlikni oshirish, shuningdek, o'simlik kasalliklariga chidamliligini kuchaytirish.
Mikroelementlar boyitilgan kaliy xlorid ishlab chiqarish orqali:
Teleset
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati